

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701304**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Tarkibidagi barcha olmoshlar fonetik o'zgarishga uchragan gapni aniqlang.
A) *Birinchi qaldirig'och parvozini ko'rgan kishi qanday sevinsa, Avaz ham bundan shunday quvonadi.*
B) *Birovning do'stlar-u xorijlari bor, Mening hech kimim yo'q - o'zingdan boshqa.*
C) *Shunday bo'lmog'iga asos bor edi, chunki ikkalasi bir ko'chada o'sib-ulg'aygan edilar, bunisining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi.*
D) *Anovi kungi yosh mehmonni senga maqtasam, achchig'landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o'shanga berdilar.*
2. Tarkibida omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan 2ta yetakchi morfema qatnashgan havola bo'lakli qo'shma gapni toping.
A) *Shuni bilingki, bu nizolar hech qaysi xalqqa foyda keltirmaydi.*
B) *Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi, seni to'ydiradi.*
C) *Shuni bilginki, sen o'z maqsadingni aniq qo'yib, har bir mashg'ulotga astoydil tayyorlanishing kerak.*
D) *Yomon bo'lar, agar ko'z yoshing tugab qolsa, kulgunicha baxt.*
3. Taqillaydi eshik nogahon,
-Kimsan?- Deyman tugab sabotim,
-Ochgil, -deydi. -Bu -men, qadrdon,
Bilmoq bo'lsang-bardoshdir otim.
Ushbu she'riy parchada nechta egasi yashirilgan soda fe'l kesimli gap mavjud?
A) 1 B) 2 C) 3 D) 4
4. Nutqimizda portlovchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?
A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
5. **Jadval** so'zidagi 1 undoshi qaysi xususiyatiga ko'ra boshqa undoshlarning hech qaysisi bilan bir umumiy guruhga mansub bo'la olmaydi?
A) *hosil bo'lish o'rniga ko'ra*
B) *jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra*
C) *hosil bo'lish usuliga ko'ra*
D) *shovqinli yoki sonorligiga ko'ra*
6. Quyida keltirilgan qaysi parchada gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo'lakning fonetik o'zgarishga uchrashi kuzatiladi?
A) *Tarixingdir ming asrlar ichro pinhon, o'zbegim.*
B) *Ey mungli xotin, sen kimsan! Ey g'amli ona, nechun mungdan ayrilmaysan?*
C) *Mustaqillik! Asrayman seni Kerak bo'sa xayotim bilan Ulug'layman vasling toabad She'r-u g'azal, bayotim bilan!*
D) *Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq-mening o'limim Sening uchun o'lmoq mening tirikligimdur.*
7. Alam qiladigan joyi shundaki, mening qavmlarim - tarjimonlar hamtilni bulg'ash uchun tobora xuruj qilmoqdalar.
Ushbu gap haqidagi noto'g'ri fikrlarni toping.
1) kesim ergash gapli qo'shma gap; 2) ajratilgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gap; 3) ergash gap tarkibida ajratilgan bo'lak; 4) bosh gapi kesimi ot kesim bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3, 4
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakllari ham o'zaro omonim bo'la oladi?
1) soch, 2) shox, 3) sir, 4) tovon, 5) es 6) bot
A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
10. Quyida berilgan necha so'zning ma'nosi metonimiya usulida ko'chishi mumkin?
samovar, ko'zoynak, zal, qadah
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
11. Taqlid so'z eganing aniqlovchisi vazifasini bajargan gapni aniqlang.
A) *Jigarim otashga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda, ehtimol.*
B) *Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda qo'ng'ir-qo'ngir ovozdan uyg'onib ketdim.*
C) *Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyilgan totli havosi hammamizning ruhimizni ko'tarib yubordi.*
D) *Chiqib ketayotganida chol-kampir pichir-pichir qilayotganini sezdim.*
12. Son turkumiga oid so'z otlashgan gaplarni aniqlang.
1) To'qqizida bo'lmagan aql to'qsonida ham bo'lmas. 2. Ikki yomon qo'shilsa, keng dunyoga sig'maydi.
3. Mingta shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi. 4. Birni bersang otangga, mingni olasan bolangdan.
A) 1, 2, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 4
13. Qaysi gapda ham asliy, ham nisbiy sifatlar ishtirok etgan?
A) *Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish uchun xalq mafkuraviy jihatdan qurollangan bo'lmog'i kerak.*
B) *Xonaga do'ppili kishi kirib, oilaviy masala bo'yicha ishi borligini aytdi.*
C) *O'ymakor gullari bilinmaydigan darajada o'chgan, qo'sh tabaqali eski eshikka kiramiz.*
D) *Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta odam.*
14. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismini ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.
Berilgan parchadagi fe'llar tarkibida qaysi nisbat qo'shimchasi qatnashmagan?
A) o'zlik B) majhul C) birgalik D) orttirma
15. Podsholik istasang, bo'l el gadosi,
O'zingni unut-u, bo'l el oshnosi,
El toj kabi boshga ko'tarsin desang,
El qo'lin tutgin-u, bo'l xoki posi.
Ushbu gap...
A) *qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap*
B) *bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap*
C) *aralsh murakkab qo'shma gap*
D) *bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
16. Berilgan so'zlardan nechta noto'g'ri yozilgan?
halifa, xilvatgoh, muholif, xassos, ehrom, shukuxli, taxsin
A) beshtasi B) ikkitasi C) uchtasi D) to'rttasi
17. Hamma narsa uylar devorlar daraxtlar qorong'ulikka jimgina cho'kdi.
Ushbu gapda qanday tinish belgilari qo'llanadi?
A) *ikki nuqta, vergul, tire*
B) *tire, vergul, tire*
C) *ikki nuqta, vergul, vergul*
D) *vergul, vergul, tire*
18. Mustaqillik farzandlari O'zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda, uning shuhratini olam uzra yoymoqda.
Berilgan gapda otning otga tobelanishi necha o'rinda kuzatilgan?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 2
19. Holatga taqlid so'z hol vazifasini bajargan gapni toping.
A) *Jannat xola nima bo'lganini bilolmay, devorga suyanganicha dag'-dag' titrab turardi.*
B) *Hozir qulfni daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.*
C) *O'rdaklar karvoni pastlab uchib, qorayib yotgan yer ustida yana bir aylandi-yu, g'aqillab qumlik chetida sokin shovullagan qamishlar ustiga sho'ng'ib ketdi.*
D) *Chirs-chirs chaqmoq chaqar, temir shift dahshatli lopillar edi.*
20. Berilgan parchada uchta so'zga nisbatan bevosita hokim qism vazifasini bajargan?
Dunyodagi tinchliksevar va madaniy xalqlar o'zaro insoniy muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq urf-odatlar bor.
A) *faqat kesim*
B) *to'ldiruvchi, kesim*
C) *ega, kesim*
D) *ega, to'ldiruvchi, kesim*
21. Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,
Poyida shivirlar mening kuylarim,
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,
Bu — mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.
She'riy parcha tarkibida ishtirok etgan qaratqich aniqlovchilar qaysi bo'laklarga nisbatan tobe bo'lak vazifasini bajargan?
A) *hol, ega, kesim* B) *ega, kesim* C) *kesim, ega, kesim* D) *kesim, aniqlovchi*

22. Nuqtalar o'rniga faqat tushum kelishigi qo'llaniladigan gapni belgilang.
 A) *Ko'p til... bilmoqlik... foydasi katta, u inson...katta boyligi hisoblanadi.*
 B) *Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila... tinchligi... asraylik.*
 C) *Qirg' yil umri... sarf qilib, yulduzlar siri..., koinot siri... o'rgandi-yu, zamin siriga, insonlar hayotiga kelganda g'aflatda qoldi.*
 D) *Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi.*
23. Berilgan she'riy parchada asos va ikkita munosabat shakliga ega bo'lgan ismlarga mansub so'zlar necha o'rinda qo'llangan?
 Bilmam, nima edi maqsading,
 Menga bir juft guling asrading,
 Birin otin Kumush atading,
 Birin otin Zaynab qo'yding-ku.
 A) 8 B) 6 C) 5 D) 7
24. Yaxshi bo'lg'in, hatto dushmaning oson,
 Seni deymasin yaramas, yomon.
 Tanburning ovozi soz chiqib tursa,
 Qulog'in buramas sozchi hech qachon.
 She'riy parchadagi ko'makchi morfemalar haqida bildirilgan to'g'ri fikrlarni toping.
 1) 2 ta qaratqich, 2 ta tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llangan; 2) 2 ta buyruq-istak mayli qo'shimchasi mavjud;
 3) 3 ta egalik qo'shimchasi qo'llangan; 4) 3 ta so'z yasovchi qo'shimcha qo'llangan.
 A) 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 4 D) 2, 3
25. P.Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarida Sherxon kimning yordamida hiyla-bo'htonlar yo'li bilan bir zarbada ham Humoyunning eng sadoqatli kutvoli bo'lgan amir Bahlulni mahv etish, ham Hindol bilan akasining do'stligini adovatga aylantirishga erishgan edi?
 A) *La'l Chand* B) *Havasxon* C) *Alvaro Pakavira* D) *Bikromadit Gaur*
26. Qaysi adib ikki davlat madhiyalarining so'zini yozgan?
 A) *J.London* B) *E.Seton – Tompson* C) *H.Hayne* D) *R.Thakur*
27. Navoiy kimlarning xotirasiga bag'ishlab memuar – estaliklardan iborat nasriy asarlar yaratgan?
 1) Husayn Bayqaro; 2) Sayyid Hasan Ardasher; 3) Abdurahmon Jomiy; 4) Pahlavon Mahammad
 A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 2, 3, 4
28. Bog' tasviri berilgan quyidagi parcha qaysi dostonidan olingan?
 "Bir qancha yo'l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog', bir yog'i chorbog', juda katta - kalondimog', ko'rganlar farog'..."
 A) *"Alpomish"dan* B) *"Kuntug'mish"dan* C) *"Ravshan"dan* D) *"Rustanxon"dan*
29. Alisher Navoiy "Xamsa"sining qaysi adabiy qahramoni "g'ayratidin tutmam otin" deya yorini hatto tilida aytishga rashk qilishini aytadi?
 A) *Farhod* B) *Suhayl* C) *Majnun* D) *Bahrom*
30. Qaysi javobda R. Thokurning Xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan she'riy to'plami nomi berilgan?
 A) *"Suratlar va qo'shiqlar"*
 B) *"Tonggi qo'shiqlar"*
 C) *"Chitragoda"*
 D) *"Gitanjali"*
31. Oybekning "Navoiy" romanida qaysi qahramon josusligi hamda yashirin hujjatlar bilan qo'lga tushgani tufayli jazo sifatida dorga tortiladi?
 A) *qozi Shahobiddin* B) *Majiddin* C) *mavlono Zamoniyy* D) *Amir Mo'g'ul*
32. Qaysi shoir o'z g'azallaridan birida talmeh san'atidan mohirona foydalanib o'nlab buyuk shoirlarni tilga olar ekan Nizomiyni "voliyi mulki tariqat" (tariqat mulkining hukmdori) deya ulug'laydi?
 A) *Munis* B) *Navoiy* C) *Huvaydo* D) *Ogahiy*
33. "Bir kun yilonlar jam bo'lib aydilar: bizlar lakkak bilan murosa qilib qismat qilolir har kunda bir yilonni oning xo'rokiga berali, o'zgamizga zahmat bermasun. Barchalari aydilar: andoq bo'lsun. Bir yilonni elchi qilib lakkakning yoniga yibordilar".
 Laylak va ilonlar haqidagi hikoyatdan olingan ushbu parcha. qaysi asarda, keltirilgan?
 A) *"Guliston" (Sa'diy Sheroziy)*
- B) *"Guliston bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)*
 C) *"Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)*
 D) *"Miftoh ul-adl" (Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja.)*
34. "U hayotining ko'plab qiyinchiliklariga, taqdirning son-sanoqsiz sinovlariga duch keladi. To'ng'ich o'g'lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan biri bo'lishiga qaramay, qatl etilishi shunday og'ir sinovlardan edi".
 Ushbu ma'lumotlar qaysi ijodkor hayotiga aloqador?
 A) *Xo'janazar Huvaydo*
 B) *Gulxaniy*
 C) *So'fi Olloyor*
 D) *Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja*
35. Qaysi asar Alisher Navoiyning falsafiy qasidasi hisoblanadi?
 A) *"Tuhfatul-afkor"* B) *"Sab'at-u abhur"* C) *"Munshaot"* D) *"Nasoyim ul-muhabbat"*
36. Quyidagi baytda qo'llangan badiiy san'atni toping.
 Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turib shamshod,
 Tutar yo'lingda nargisdin shamshon lola.
 A) *tanosub, tazod, husni ta'lil*
 B) *tanosub, tashxis, husni ta'lil*
 C) *tashxis, tashbeh, isroli masal*
 D) *talmeh, tazod, iyhom*

BIOLOGIYA

37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2a_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini digeterozigota genotipli quyonlar tashkil qiladi?
 A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchidi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, $AaBb \times aaBb$ genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.
 A) $a-3:1:2:1:1; b-4:2:1:1$
 B) $a-1:1:1:3:1:1; b-2:4:1:1$
 C) $a-2:2:2:1:1; b-3:2:2:1$
 D) $a-1:2:1:1:2:1; b-3:1:3:1$
40. Xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi (a) va DNK bo'lagi genomning ma'lum joylarga kirishi (b) qanday nomlanadi?
 A) *a-inversiya; b-inversiya*
 B) *a-inversiya; b-inversiya*
 C) *a-deletsiya; b-duplikatsiya*
 D) *a-inversiya; b-ekssiziya*
41. O'simlik mitoxondriyada oksidlanish jarayonida 108 kJ molekula ATF sintezlangan bo'lsa, sitoplazmada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF molekulasi sonini (b) aniqlang.
 A) $a-240; b-3420$
 B) $a-240; b-2160$
 C) $a-360; b-3240$
 D) $a-360; b-3420$
42. O'simlik gullarida 60 ta arxeosporaning ko'payishi natijasida hosil bo'lgan barcha tuxum xujayralarning urug'lantirish jarayonida nechta spermii hujayrasi qatnashadi?
 A) 60 B) 240 C) 36 D) 120
43. Bir sinfga mansub o'simliklar navlarini aniqlang.
 A) *Yulduz, Toshkent-1, Ulug'bek-600*
 B) *Zarg'aldoq, Sangzor, Samarqand-3*

- C) Zarafshon, Buxoro-9, Nimrang
D) Vatan, Sangzor, Omad
44. Quyidagi berilganlardan noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) sil tayloqchasi hujayrasidagi halqasimon DNK membrana bilan o'ralmagan; 2) xongul hujayrasi membranasi oqsil va ikki qavat lipid molekularidan iborat; 3) loviya urug'i hujayrasidagi donador endoplazmatik to'rt lipid sintezini amalga oshiradi; 4) ko'k yashil suv o'tlarining hujayralari erkin azotni to'plash xususiyatiga ega; 5) oq po'panak tanasi bir yadroli ko'p hujayralardan iborat; 6) batsidiya hujayralarida lixenin, amilaza, turli vitamin va fermentlar uchraydi.
A) 1,6 B) 2,4 C) 3,5 D) 1,3
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
1) qushlarda to'rt kamerali yurak; 2) qirg'uloqsimonlarda urug'; 3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biogeotsenoz (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.
1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Birlamchi konsument (a), ikkilamchi konsument (b) umurtqali organizmlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) kojan; 2) ko'l baqasi; 3) O'rta osiyo toshbaqasi; 4) soxta kurakburun; 5) chuchuk suv gidrasi; 6) botqoq toshbaqasi; 7) zlatka; 8) kabarga; 9) termit; 10) karkidon
A) a-4,7; b-1,2
B) a-6,10; b-3,4
C) a-8,10; b-1,6
D) a-7,9; b-4,5
48. Qaysi belgilarning irsiylanishi polimer genlar faoliyatiga bog'liq emas?
1) piyozbosh rangining oq bo'lishi; 2) qoramollarda sutning miqdori; 3) itlarda yungning oq bo'lishi; 4) tovuqlarda patning qora rangda bo'lishi; 5) xo'rozlarda gulsimon tojning irsiylanishi; 6) lavlagida qandning miqdori; 7) xushbo'y no'xotda gultobjarglarning oq bo'lishi; 8) bug'doyda donning qizil rangda bo'lishi
A) 3,6 B) 2,4 C) 1,8 D) 5,7
49. Vegetativ nerv sistemasi bo'limlari va ularning boshqaradigan jarayonlar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.
a) orqa miya; b) uzunchoq miya;
1) sistolani tezlashtiradi; 2) sistolani sekinlashtiradi;
3) oshqozonda shira ajralishini tezlashtiradi; 4) qovuq muskullarini bo'shashtiradi; 5) oshqozon muskullari harakatini susaytiradi
A) a-1,3; b-2,4
B) a-4,5; b-2,3
C) a-1,4; b-2,5
D) a-3,4; b-2,5
50. III qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?
A) antitanalar, insulin, agglyutinin a, gemogloblin, glyukoza, fermentlar
B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen B
C) antigemofil omil, agglyutinin β, gormonlar, vitaminlar, rezus omil
D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmda ishlab chiqiriladigan oqsil (a) va lipid (b) tabiatiga ega gormonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1) tripsin; 2) insulin; 3) androsteron; 4) pepsin; 5) somatotrop; 6) melanin; 7) estrogen; 8) xolesterol
A) a-2,5,6; b-6,8
- B) a-4,6; b-2,5
C) a-1,5; b-7,8
D) a-2,5; b-3,7
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilymfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Qaysi hasharotlar metamorfoz jarayonida og'iz a'zolari o'zgaradi?
1) chigirtka; 2) bronza qo'ng'izi; 3) ninachi; 4) to'shak qandalasi; 5) podalariy; 6) tovusko'z; 7) olma mevaxo'ri
A) 6,7 B) 1,2 C) 3,4 D) 1,5
55. Zarar keltiruvchi hasharotlar turkumlari bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) hasva; 2) olma qurti; 3) kuya; 4) chigirtka; 5) bezgak paraziti; 6) so'na; 7) oq chumoli; 8) kana; 9) iskabtopar; 10) trixogramma;
a- to'g'riqanotlilar; b- qandalalar; c-tangachaqanotlilar; d-ikki qanotlilar; e-termitlar
A) b-1; d-6; e-8 B) a-4; b-1; c-3; d-9 C) a-4; c-2; d-9,10; e-7 D) a-4; b-1; d-5; e-7
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-mufflon, g'izol, bizon
57. Yirtqich sutemizuvchilar tishlariga xos xususiyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
a) oq ayiq; b) bo'rsiq; c) tyin; d) norka;
1) kurak tishlari yirik va o'tkir; 2) qoziq tishlari baquvvat va o'tkir; 3) kurak tishlari mayda; 4) qoshiq tishlari bo'lmaydi; 5) oziq tishlarning o'zgarishidan yirtqich tishlar hosil bo'lgan; 6) kurak tishlari hayoti davomida o'sib turadi
A) a-2,3,5; b-2,5; c-1,6; d-3,5
B) a-2,5; b-1,2,5; d-1,4,6
C) a-2,3,5; b-2,5; d-2,3
D) a-2,3,5; b-2,3,5; c-1,4,6
58. Jag'larida faqat kurak va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.
1) larcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) suqsun; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan
A) 1,3,4 B) 2,5,7 C) 5,9,10 D) 6,7,8
59. Prokariot hujayraga xos bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.
1) tugunak bakteriyasida membrana sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi; 2) nostokning sharsimon hujayrasida ribosoma, halqasimon DNK va mezosoma mavjud; 3) xrokkok sentroplazmasidagi xlorofill birlamchi uglevod sintezini amalga oshiradi; 4) gommooz qo'zg'atuvchisi hujayrasida fotosintez membranalarida amalga oshiradi; 5) pichan bakteriyasida irsiy axborot sitoplazmadagi membrana bilan o'ralgan halqasimon polinukleotidda joylashgan; 6) prokariot hujayrada zaxira moddalar sifatida polisaxaridlar va yog'lar to'planadi
A) 1,6 B) 1,3 C) 3,5 D) 2,4
60. Hujayra joyining o'zgarishini (1), hujayrada moddalar tashilishini (2), hayvonlarda hujayralararo aloqani (3), hujayra ichki tuzilmasini harakatini (4) ta'minlaydigan hujayra tuzilmalarini to'g'ri ko'rsating.
a) tashqi endoplazmatik membrana; b) endoplazmatik to'rt; c) sitoskelet; d) Golji majmuasi
A) 1-c; 2-b; 3-a; 4-c
B) 1-a; 2-d; 3-b; 4-c
C) 1-b; 2-c; 3-a; 4-d
D) 1-a; 2-a; 3-c; 4-b
61. Shimpanze somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta;
2) anafazada xromosomalar soni 96 ta;

- 3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta; 4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G₁ davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta
A) 1,4 B) 3,5 C) 4,5 D) 2,6
62. Seleksiyada yalpi tanlash usullarining qo'llanilishi bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) chetdan changlanuvchi o'simliklarga nisbatan qo'llaniladi; 2) toza liniyalari olinadi; 3) genetik nuqtai nazardan bir xil bo'lmagan navlar olinadi; 4) genetik nuqtai nazardan bir xil organizmlar guruhi olinadi; 5) avlodlar soni kam bo'lganligi sababli chorvachilikda qo'llaniladi
A) 3,5 B) 1,3 C) 2,5 D) 1,4
63. EcoRI restriktazasi GAATTC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GA nukleotidlar orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasini EcoRI restriktazasi orqali A,B,C bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, DNK bo'laklari (A,B,C) tarkibidagi vodorod bog'larning nechitasi G va C nukleotidlar orasida joylashgan?
A) 350 B) 450 C) 426 D) 334
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?
A) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva
B) a-juft patsimon, yonbargchasi; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva
C) a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q
D) a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to'sig'i bor
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqli; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpoyasining shoxlanishi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. "Gullari mayda, bir yoki ikki jinsli, gulkosachabarglari va gulto'jibarglari beshtadan, ayrimlarida gulqo'rg'oni yaxshi taraqqiy etmagan"
Ushbu ta'rif qaysi oila uchun xos ekanligini aniqlang.
A) bug'doydoshlar B) ziradoshlar C) sho'radoshlar D) piyozdoshlar
67. Makkajo'xori haqida to'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotni aniqlang.
A) Poxol poyasi bir metrdan oshadigan, bo'g'imlarga bo'lingan, tik o'suvchi ko'p yillik o'simlik.
B) Urug'dagi murtagi ildizcha, poyacha va ikkita bargchadan tashkil topgan.
C) Gullari mayda, rangsiz, ayrim jinsli, urug'chi gullar so'ta to'pgulida tashkil joylashgan.
D) Chatnaydigan mevasi quruq, etsiz, ko'p urug'li.
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta
A) 4,6,10 B) 1,2,3 C) 5,6,7 D) 7,8,9
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoniy; 6) sporangiyband; 7) anteridy; 8) sporalar; 9) rizoid; 10) sporangiy
A) 1,2,9 B) 5,7,8 C) 6,8,10 D) 3,4,10
70. Evolyutsion taraqqiyot jarayonidagi nisbatan yosh organizmlarni aniqlang.
1) yantoq; 2) zuhrasoch; 3) qirquuloq; 4) oq zamburug'; 5) qo'zidumba; 6) oddiy jag'-jag'; 7) nemalion; 8) ulva
A) 1,6 B) 7,8 C) 2,3 D) 4,5
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.
A) yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns
B) kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y
C) jirafa, agama, kapachi qush, echkamar, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot
D) antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog,

echkamar

72. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari aromorfozlar natijasida paydo bo'lgan?
1) tog'ayli baliqlar; 2) suyakli baliqlar; 3) tikandum skat; 4) sudralib yuruvchilar; 5) panjaqanotli baliqlar; 6) latimeriya; 7) soxta kurakburun
A) 1,2,3 B) 1,2,4 C) 4,5,7 D) 3,6,7

KIMYO

73. Metall sulfat tuzi o'z massasiga teng massali suvda eritilganda eritmadagi metal kationlarining massa ulushi 13/58 ga teng bo'ldi. Tuzni aniqlang.
($\alpha=1$, gidroliz jarayoni hisobga olinmasin)
A) Na_2SO_4
B) K_2SO_4
C) $CuSO_4$
D) $ZnSO_4$
74. Propantriol-1,2,3 molekulasini tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) -5 B) -3 C) -4 D) -2
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.
1) $NaMnO_4$; 2) H_2SO_4 ; 3) H_2S ; 4) CrO_3 ; 5) NH_3 ; 6) $HClO_4$
A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 52,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 89,2 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.
A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislorodda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislotasi eritmasida eritilganda fosfat kislotasi miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 360 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.
A) 85,2 B) 72 C) 98,4 D) 14,2
78. 26,5 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislotasi olinadi? ($\eta=0,75$)
A) 21,6 B) 28,8 C) 36 D) 27
79. Karbon kislotasi kalsiyli tuzi pirolizidan aldegid olindi. Agar aldegid qaytarilganda olingan spirtning bitta molekulasini tarkibida sp^3 -s qoplanishlar soni 8 ta bo'lsa, dastlabki tuzning tuzilishini aniqlang.
1) $(CH_3COO)_2Ca$; 2) $CH_3CH_2COO-Ca-OOCH_3$
3) $CH_3COO-Ca-OOCH_3$; 4) $CH_3COO-Ca-OOCH_2CH_3$
A) 3 B) 4 C) 2 D) 1
80. Noma'lum alken tarkibida sp^2 - gibril orbitalar sonining sp^3 - gibril orbitalar soniga nisbati 3/4 bo'lsa, alkenni aniqlang.
A) buten B) propen C) penten D) geksen
81. 0,25 mol malon kislotasi qizdirilganda hosil bo'lgan mahsulotlarni to'liq neytrallash uchun qancha (g) 25% li NaOH eritmasi kerak bo'ladi?
A) 108,8 B) 104,5 C) 120 D) 106,7
82. Asetilening dimerlanishidan (kat. NH_4Cl va $CuCl_2$) hosil bo'lgan moddani aniqlang.
A) benzol B) polietilen C) butadiyen-2,4 D) vinilasetilen
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kalii permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislotasi va 0,4 mol tereftal kislotasi hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.
A) 20,1; 12
B) 33,5; 80,4
C) 46,9; 93,8
D) 26,8; 53,6
84. Mol nisbatlari 1:3:2 bo'lgan C, Si, Cu dan iborat aralashmani to'la eritish uchun avvaliga 98% li sulfat kislotadan 450 g, so'ngra 40% li NaOH eritmasidan X g sarflandi. X ni aniqlang.
A) 480 B) 540 C) 360 D) 450
85. Atom kristall panjarali moddalarni aniqlang.
1) $CuSO_4$; 2) H_2S ; 3) Ge; 4) KOH; 5) B; 6) HCl; 7) Ca; 8) P_4 ; 9) Zn

- A) 3,5 B) 7,9 C) 1,4 D) 2,6,8
86. Necha gramm triakontan tarkibida $0,15 \cdot N_A$ ta uglerod atomi bor?
A) 4,22 B) 6,33 C) 8,44 D) 2,11
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/4; 1/4; 1/2
B) 1/7; 3/7; 3/7
C) 1/9; 2/3; 2/9
D) 2/5; 2/5; 1/5
88. ${}_{102}^{a}\text{No} \rightarrow {}_{96}^{b}\text{Cm} + x {}_2^{\alpha}\text{He} + y {}_0^1\text{n}$ yadro reaksiyasida 12,7 mg No yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini aniqlang.
($a-x=249$; $x+y=9$)
A) $36,12 \cdot 10^{23}$
B) $12,04 \cdot 10^{19}$
C) $18,06 \cdot 10^{18}$
D) $96,32 \cdot 10^{18}$
89. 0,3 mol $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ va $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan 2,6 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 1:2 B) 0,5:0,25 C) 1:1 D) 2:1,5
90. Quyidagi keltirilganlar orasidan aralash element-organik birikmalarini ajrating.
1) CH_3MgI ; 2) $(\text{CH}_3)_3\text{P}$; 3) CH_3Na ; 4) $(\text{CH}_3)_3\text{SiCl}$; 5) $(\text{R})_2\text{PCl}$;
6) $(\text{CH}_3)_4\text{Si}$
A) 1,4,5 B) 2,3,4,5 C) 1,2,5,6 D) 1,2,4,6
91. $A_{(g)} + B_{(g)} \leftrightarrow 2C_{(g)}$ sistemada boshlang'ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat ($K_m=4$) qaror topgandan so'ng moddalarning konsentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang
A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. 600 g 25%li eritmadan bir qismi to'kildi va unga xuddi shunday massadagi 55 %li eritma qo'shilganda 45% li eritma hosil bo'ldi. Ushbu jarayonda qancha (g) 55 %li eritma ishlatilgan?
A) 450 B) 300 C) 500 D) 400
93. 200 g 43,1% Na_2HPO_4 eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H_3PO_4 eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH_2PO_4 tuzining massa ulushi Na_2HPO_4 tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H_3PO_4 eritmasining molyarligini aniqlang.
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. Nitrat kislotaning 20% li va 60% li eritmaları bo'lib, 20% li eritmadagi kislotada massasi 60% li eritmadagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 38 B) 33 C) 44 D) 51
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^6 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.
A) 4 B) 10 C) 9 D) 3
96. Ortofosfat kislotada eritmasida quyidagi ionlarni ularning miqdorini ortib borish tartibida joylashtiring.
1) H_3O^+ ; 2) PO_4^{2-} ; 3) HPO_4^{2-} ; 4) H_2PO_4^-
A) 2,3,4,1 B) 1,4,2,3 C) 3,2,1,4 D) 1,4,3,2
97. $\text{MnO}_2 + \text{NaClO}_3 + \text{NaOH} = \text{Na}_2\text{MnO}_4 + \text{H}_2\text{O} + \dots$ reaksiya tenglamasini tugallang va barcha koeffitsiyentlar yig'indisini hisoblang.
A) 34 B) 25 C) 19 D) 17
98. 200 g 16% li mis (II) sulfat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda 17,5% li eritma olindi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.
A) 8 B) 8,4 C) 0,4 D) 2,4
99. Mis sim qizdirilganda massasi 20% ortgan. Hosil bo'lgan aralashmadagi misning massa ulushini aniqlang.
A) 5/12 B) 1/6 C) 1/12 D) 5/6
100. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat 0,8 mol aralashma (mol nisbati 1:0,6) qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislotada eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlangan?
A) 60 B) 50 C) 40 D) 80
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, ushbu aralashmaning massasini (g) hisoblang.
A) 14 B) 8,05 C) 24,15 D) 28
102. MeSO_4 ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103. $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + z\text{CO}_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) MgCO_3 tarkibida qo'shimchalar borligini
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Hajmiy nisbatlari mos ravishda 2:5 bo'lgan 15,68 litr (n.sh) SiH_4 va NH_3 gazlar aralashmasiga atomlar soni teng bo'lguncha SiH_4 qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi NH_3 ning hajmiy ulushini toping.
A) 2/9 B) 2/7 C) 5/9 D) 5/7
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va MeCl_2 ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan MeCl_2 eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; 2) K_2CO_3 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. 26,8 g olma kislotaga stexiometrik nisbatda Na metali qo'shilganda olingan H_2 ni 11,2 litr (n.sh.) C_2H_2 bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingan gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?
A) 1,2 B) 7 C) 1,4 D) 1,8